

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 1/S. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/1 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BO'LGAN INSONLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR	9-16
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>	
ФАРГОНА ВОДИЙСИ МИНГ ЎЗБЕК УРУҒИ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН	17-22
<i>Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li</i>	
AFRIG'IYLAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI	23-26
<i>Исмоилова Нигорахон Усмонжановна</i>	
НАЛИВКИН И ЕГО СВЕДЕНИЯ О ТУЗЕМНОЙ ЖЕНЩИНЕ	27-34
<i>Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи</i>	
ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ МЕМОРИАЛЬНОГО МУЗЕЯ САДРИДДИН АЙНИ	35-40

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Zhao Rong</i>	
RESEARCH ON THE CONSTRUCTION OF CORE CURRICULUM STANDARDS FOR CROSS-BORDER E-COMMERCE MAJORS BASED ON HIGHER VOCATIONAL EDUCATION IN INNER MONGOLIA	41-48
<i>Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li</i>	
FARG'ONA VILOYATIDA AGROTURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RESURS SALOHIYATINI BAHOLASH	49-58
<i>Malikova Gulhayo Turdali qizi</i>	
TIJORAT BANKLARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI	59-64
<i>Maxmudov Anvarjon</i>	
SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARINI TARKIBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA ULARNI IQTISODIY MOHIYATI	65-75
<i>Мухитдинов Аҳрор</i>	
РАҲАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА ЯГОНА МАРКАЗЛАШГАН ДИСПЕЧЕРЛИК ХИЗМАТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ	76-82
<i>Jurayev Xusan Atamuratovich</i>	
KORXONANI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	83-89
<i>Butunov Shaymardan Berdiyarovich</i>	
NOANIQLIK ORQALI HARAKAT QILISH: IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA MOLIYAVIY TAHLIL	90-96
<i>Islomova Mohlaroyim Inomjon qizi, Ortiqova So'g'diyona Abdusodiq qizi, Abdurahimova Zulhumor Azimjon qizi</i>	
TURIZM XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI QO'LLASH	97-103
<i>Содиков Анвар</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ КЎП ОМИЛЛИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА МУҶОБИЛ СЦЕНАРИЙЛАРИНИ АНИҚЛАШ...	104-116

<i>Norov Asror Egamberdiyevich, Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich</i>	
O'ZBEKISTONDA DOKTORANTURA FAOLIYATI YO'LGA QO'YILGAN OLIY TA'LIM VA ILMIY TADQIQOT MUASSASALARI	117-122

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Эшонқурова Нуржакон Абдужабборовна</i>	
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ	123-130
<i>Khalilova Shakhlo Abdurashitovna</i>	
IBN SINA AND HIS CONTRIBUTION TO SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION: RETHINKING THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS	131-136

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Saidov Hakim G'ofurovich</i>	
VATANPARVARLIK VA MILLIY G'URURNING FALSAFIY KATEGORIAL NEGIZLARI	137-141
<i>Jabborov Jamshid Azimovich</i>	
MA'NAVIY EHTIYOJLAR JAMIYAT MA'NAVIY HAYOTINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA	142-148
<i>Соатов Ғайрат</i>	
БАЙРАМЛАР – МИЛЛАТНИНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТИ	149-156
<i>Raxmatova Xolidaxon Xolikovna</i>	
NAQSHBANDIYLAR EHTIROMIGA SAZOVOR BUYUK ZOT	157-161
<i>Wang XiaoYu</i>	
AN ANALYSIS OF THE MYTHICAL PATTERNS IN ULYSSES FROM THE PERSPECTIVE OF ARCHETYPE THEORY	162-170
<i>Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna</i>	
FEATURES OF 19th CENTURY LITERATURE: ROMANTICISM AND REALISM	171-175
<i>Aripova Saodat Taxirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	176-181
<i>Xudoyqulov Behzod Abbosovich</i>	
ITALYAN TILDAGI FRAZEOLOGIK IBORALAR TARJIMASI VA ULARNING O'ZBEK TILDAGI EKVIVALENTLARI	182-187
<i>Mavlonova Gulnora Abdig'ani qizi</i>	
ADABIYOTDA QO'LLANILGAN EVFEMIZMLAR (ROMAN VA SHE'RIYAT) MISOLLAR BILAN	188-192
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Izzatilloyeva Sevinch Nusratilloyevna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "YAXSHILIK" KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSUYATLARI	193-197
<i>Djurayeva Orzigel Gafurovna</i>	
QAXXOR BAXSHI RAHIMOV IJODINING O'RGANILISHI	198-204
<i>Gafarova Shahnoza Hayrullayevna</i>	
TIL VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR	205-209

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

- Исломқурова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
 ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУФУРТА ҚИЛИШНИ ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ
 ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ВА ЗАРУРИЯТИ 210-215

Sarvinoz Sunnatillaeva

- PROCEDURAL CHALLENGES IN THE REGULATION OF ABUSE OF DOMINANT POSITION IN
 UZBEKISTAN 216-222

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich*

- FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF REFORMS IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF
 HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 223-233

Shokirov Po'lat

- TALABALARGA ATLETIK GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHING
 USLUBIY ASOSLARI 234-238

Begmatova Dilnoza Muxtarovna

- JAHON MIQYOSDA TA'LIM JARAYONI SUBYEKTLARIDA MADANIY IMMUNITETNI
 SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI 239-243

To'rayev Panji To'xtayevich

- MILLIY KURASH MASHG'ULOTLARIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL
 ETISH VA SHAKLLANTIRISH 244-248

- Axmedova Nafisa Isaxodjayevna, Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li, Lutfullina Rumiya Anvarovna*
 OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAKULTETLARI TALABALARI
 UCHUN ANTIDOPING QOIDABUZARLIKLARINING OLDINI OLISH MEXANIZMINI
 YARATISH 249-256

Egamberdiyev Javlonbek

- TA'LIM MUASASSALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING
 ILMIY-USLUBIY ASOSLARI 257-260

Kenjaboev Abdisalim Erkaboevich

- ZAMONAVIY TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK RAHBARNING
 KOMPETENTLIGI 261-265

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna
Buxoro davlat pedagogika instituti,
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti

NAQSHBANDIYLAR EHTIROMIGA SAZOVOR BUYUK ZOT

Annotatsiya. Mazkur maqolada Naqshbandiya ta'lomitining yirik vakili Orif Deggaroniyning ma'naviy merosi, falsafiy va tasavvufiy qarashlari tahlil qilingan. Bahouddin Naqshband dunyoqarashining shakllanishida mutasavvifning roliga etibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: "Rashahot", Bahauddin Naqshband, Orif Deggaroni, Amir Kulol, naql, halollik, karomat, nafs.

Rakhmatova Kholidakhon Khalikhovna
Bukhara State Pedagogical Institute,
associate professor of "Social Sciences" department

A MAJOR REPRESENTATIVE OF THE NAQSHBANDI TEACHINGS

Abstract. This article analyzes the spiritual heritage, philosophical and mystical views of Orif Deggaroni, a major representative of the Naqshbandi teachings. Attention is paid to the role of the mystic in the formation of the worldview of Bahauddin Naqshband.

Key words: "Rashahot", Bahauddin Naqshband, Orif Deggaroni, Amir Kulol, naql, honesty, karamat, nafs.

Рахматова Холидахон Холиковна
доцент кафедры "Социальные науки"

КРУПНЫЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ УЧЕНИЯ НАКШБАНДИ

Аннотация. В данной статье анализируется духовное наследие, философские и мистические взгляды Орифа Деггарони, крупного представителя учения Накшбанди. Уделено внимание роли мистика в формировании мировоззрения Бахауддина Накшбанда

Ключевые слова: «Рашахот», Бахауддин Накшбанд, Ориф Деггарани, Амир Кулол, накл, честность, карамат, нафс.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N21>

Kirish. Mamlakatimizda buyuk mutafakkirlarning ilmiy va ma'naviy merosini chuqur o'rghanish va joriy etish, yosh avlodni ezgu an'analar ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoevning "Tarixiy merosni asrab avaylash, o'rghanish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'naliishlaridan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan, "ommaviy madaniyat" xavfi va boqimondalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda" degan

fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Orif Deggaroniyning falsafiy-tasavvufiy qarashlarida ilgari surilgan inson ma'naviy kamolotiga oid sog'lom e'tiqod, bag'rikenglik, mehnatsevarlik, kamtarlik,adolat, ilm va ma'rifat singari g'oyalarining mazmun-mohiyatini bugungi kun nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Rashahot" ya'ni Faxruddin Ali bin Husayn al-Voiz al-Koshifiy (938/1532 yilda vafot etgan) ning avliyolar hayotiga oid taniqli "Rashahotu – aynil hayot" ("Obihayot tomchilari") asari tarixda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asarlar sirasiga kiradi. "Rashahot"ning tarixiy ahamiyati shundaki, u O'rta Osiyo islom tarixida o'chmas iz qoldirgan tabarruk zotlarning hayoti, diniy qarashlari , qoldirgan merosi haqidagi ma'lumotlarni beradi. "Rashahot" qimmatli tarixiy manba sifatida O'rta Osiyoda hukm surgan tariqatlarni, umuman tasavvuf tarixini o'rganishda , bu yerda yashagan mashhur olimlar va shayxlarning hayotini tadqiq etishda muhim manba bo'lib hisoblanadi. Asar 1503 yilda yozib tugatilgan bo'lib, Xoja Yusuf Hamadoniydan boshlab to Xoja Ahror Valiygacha bo'lgan uzoq davr ichida xalqlarimiz tarixida katta ahamiyatga ega bo'lgan 94 nafar so'fiy shayxlarning nomlari, ularning hayoti va tabiatini tasvirlaydi. As-Safiyning mazkur asarida Movarounnahr, Turkiston va Xuroson tarixi, madaniyati, falsafasi, iqtisodiyoti bilan bog'liq ko'plab qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bugungi kunda "Rashahot"ni mashhur so'fiylik tariqatlarining ilk manbalari sifatida o'rganmoqdamiz.

"Rashahot"da Movarounnahrdagi XII – XIV asrlardagi ijtimoiy – siyosiy voqe va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bular: Markaziy Osiyo shayxlari maktabining shakllanishi va tarixga xo'jagon – "o'qituvchi", "ustoz" nomining kirishi ; mazkur maktab asoschisi Abu Yoqub Yusuf Hamadoniy (553/1140 yili vafot etgan) haqidagi ma'lumotlar; xo'jagon – naqshbandiylik tariqatiga asos solinishi va uning shakllanishiga aloqador bo'lgan shayxlar to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada Naqshbandiya ta'limoti va uning mohiyatini, uning yirik namoyandalaridan biri Orif Deggaroni haqidagi ma'lumotlarni yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, dialektik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mavlono Orif Deggaroni atoqli tarbiyachi, xojagon-naqshbandiya tariqati rivojiga muhim hissa qo'shgan sohibi karomat zot bo'lgan. U kishi Bahouuddin Naqshband hazratlaridan olti yosh katta bo'lib, ul zotga ustozlik qilgan. Mavlono Orif XIV asrda, taxminan 1313-1380 yillar atrofida yashab o'tgan.

"Rashahot"dan buyuk pir, qutbul avliyo, sohibkaromat murshid Mavlono Orif Deggaroniyning ibratli hayoti va qarashlariga doir nodir ma'lumotlar ham o'rinni olgan. Asarda yozilishicha, Mavlono Orif Deggaroni Amir Kulolning to'rt xalifalaridan ikkinchisi bo'lganlar. Ul zoti sharif Deggaron dahasida tug'ilganlar. Bu hudud Buxorodan to'qqiz farsah uzoqda joylashgan. "Rashahot"da keltirilishicha, hazrati Amir Kulol aytar ekanlarki: "Maning as'habim arosida hazrati Xoja Bahouuddin va xizmati janobi Mavlono Orif, bu ikki tan yanglig' boshqa kishi yo'qtur va olar hammadin go'y eltibdurlar." Bundan ma'lumki, Amir Kulol muridlaridan (manbalarda ko'rsatilishicha, 114 nafar shogirdlari bo'lgan) Mavlono Orif Deggaroni va Xoja Bahouuddin Naqshbandga nisbatan yuksak ishonch bilan qaraganlar. Shunday yuksak ishonch samarasi sifatida Hazrati Sayyid Amir Kulol ikkinchi farzandlari Amir Hamzaning tarbiyalarini Mavlono Orif Deggaroniya havola qilgan ekanlar. Amir Hamza Orif Deggaroniyning quyidagi

so'zlarini doimo yodga olib turar edilar: "Agar yore talab qilsangizkim, sizning yuelingizni tortg'ay, bu dushvorliq bila muyassar bo'lur. Va agar yore talab qilsangizkim, siz oning yukini tortg'a yisz, hamayi ahli jahon sizning yoringiz turur". Amir Hamza o'z pirlari Mavlono Orifning bu so'zlariga umrlari davomida amal qilganlar va xalqning og'irini yengil qilish, insonparvarlik, el dardiga malham bo'lishni asosiy qoida deb bilganlar.

"Rashahot" muallifining guvohlik berishicha, Bahouddin Naqshband o'z ustodlari Amir Kuloldan mustaqil ish tutishga ruxsat olgan mahallarida, Amir Kulol u kishiga aytgan ekanlarki, turk va tojikdan chiqqan mashoyixlarning qaysi biri haqida u kishiga xabar yetsa, Bahouddin o'sha mashoyixning xizmatiga yetishi va undan astoydil ta'lim olishlari kerak. Amir Kulol Xoja Bahouddinga shunday ijozat beradilar: "Har yerda turku tojikdin mashomingizg'a bo'e yetushsa talab qiling va talabgorlikda himmatingiz mavjig'a taqsir etmang." Shu vasiyatga muvofiq, Xoja Bahouddin shayx Mavlono Orifdan darak topib, u kishining huzurlariga borganlar. Bahouddin Naqshband butun imonu ixtiyor ila yetti yil Mavlono Orif Deggaroniyning suhbatlaridan bahramand bo'lib, ul zoti sharifga ta'zim bilan munosabatda bo'lganlar. Bu munosabat mahsulida Mavlono Orifga shunchalik hurmatlari baland bo'lganki, u kishi ariq bo'yida Mavlono Orif Deggaroniydan balandda turib taborat olmas, agar yo'lida Mavlono Orifga hamroh bo'lsalar, e'tirozsiz tobelik bilan suhbatdosh bo'lar ekanlar, ular bilan safarga chiqsalar "alarning qadami ustiga qadam qo'ymas erdilar va mutobaat suvratida olarg'a musohabat qilur erdilar."

Bahouddin Naqshbandning ehtiromiga javoban, Mavlono Orif Deggaroniyning ham ul zoti sharifga e'tiqodi baland bo'lgan. "Rashahot"da keltirilishicha, Bahouddin Naqshband Haj safaridan qaytib, ma'lum muddat Marvda islam ahli bilan ulug'lar suhbatida yurganlar. Shu vaqtida Mavlono Orif Bahouddin Naqshbandga elchi yuboradilar va u kishini o'z huzurlariga chaqiradilar. Bahouddin Naqshband o'z as'hablarini Marvga qoldirib, Deggaron dahasiga Mavlono Orifning yonlariga kelganlarida Mavlono Orif bemor yotgan bo'ladilar. Mavlono Orif hozir bo'lganlarga qarata: "Xojaga sir gapim bor, yo biz ikkovimiz boshqa xonaga kiraylik, yoki sizlar boshqa xonaga o'tinglar", deb buyuradilar. Turganlar: "Siz bemorsiz, quvvatingiz yo'q, biz boshqa xonaga kiramiz", deyishibdi.

Mavlono Orif xilvatda Bahouddin Naqshbandga shunday degan ekanlar: "Siz bilan mening oramda to'liq hamjihatlik bor, shuncha ishqibozlik oradan o'tgan bo'lib, endi vaqt oxiriga yetdi. O'z yoronlarimga va sizning yoronlaringizga diqqat qildim. Bu yo'lning qobiliyati va yo'qlik sifatini boshqalarga nisbatan Xoja Muhammad Porsoda ko'proq ko'rdim. Bu yo'lida topgan har qanday nazaramni va bu sohada kasb etgan har qanday ma'noni unga nisor qildim va topshirdim. Yoronlarni unga ergashishga buyurdim. Siz ham uning borasida nuqsonga yo'l qo'ymagaysizki, u sizning yoronlaringizdan". Shundan so'ng yana ikki-uch kun umrlari qolganligi va Bahouddin Naqshband olov yoqib, suv isitib u kishini o'z qo'llari bilan yuvishlarini, uch kun o'tgandan so'ng uylariga qaytishlarini vasiyat qilgan ekanlar. Xoja Bahouddin Mavlono Orifning vasiyatlarini bekamu ko'st bajo keltirib, u kishining dafnlaridan uch kun o'tkandan so'ng Marvga qaytgan ekanlar. Manbalardagi naqlar bilan tanishar ekanmiz, Mavlono Orif Deggaroniyning yuksak ma'naviy xislatlar sohibi ekanligi,adolat, insof, diyonat tarafdoi bo'lganliklari, shuhratparastlik, manmanlikni qoralaganliklarining guvohi bo'lamic. Aytar edilarki, "Taom iste'mol qilayotgan paytda har bir a'zo bir ish bilan band bo'lur. Dil ham bu paytda zikr bilan mashg'ul bo'lur. Lekin bu vaqtida dil "Alloh" yoki "La ilaha illalloh" zikrini etmas, balki dasturxonadagi ne'matni beruvchi Alloh taoloni mushohada etur. Dil sababdan musabbibga kelur. Allohning Razzoqligini mushohada etur. Mana shu holat zikr hisoblanadi.

Shundaylar ham borki, o'ng qo'li bilan taom yeysi, chap qo'li bilan tasbeh o'giradi. Bu ish manmanlik, kibr, shuhratparastlik, firibgarlik hisoblanadi." Orif Deggaroniy inson taom tanovul qilar ekan, bergen rizqi uchun Allohga shukrona aytishga chaqiradilar. U kishi insonlarni halol mehnat bilan rizq topishga undaganlar va o'zlar ham ziroatchilik bilan shug'ullanganlar.

Deggaroniy sohibkaromat avliyo bo'lganlar, lekin karomatlarini har doim ham oshkor etmas, odamlardan pinhon tutar edilar. Faqat noiloj qolganda, zarurat tug'ilganda o'z karomatlarini ko'rsatar edilar. "Rashahot"da keltirilishicha, kunlardan birida Deggaron dahasida Obi Ko'hakdan seli azim kelgan, odamlar dahani suv bosadi, deb vahimaga tushganlar, shunda Mavlono Orif Deggaroniy o'zini suvning quvvat bilan oqadigan joyiga tashlab, "Agar qudrating bo'lsa, mani oqizg'il" degan ekanlar. Sel sekinlashib, taskin topibdi. Bu va boshqa qator hikoyatlar borki, ulardan Mavlono Orifning sohibi karomat bo'lganlar, degan xulosaga kelamiz. Ul zotga ilohiy nur nasib etgan bo'lgan. Tasavvuf qomusida bunday kishilarni avliyo yoki "zinda — dilon" deb ham atashadi. Chunki ularga g'ayb ilmi taqdir etilgan. Ilohiy imkoniyatlarga ega bo'lish esa tasavvufiy hol hisoblanadi. Mavlono Orif Deggaroniy tasavvufiy hol martabasiga ega bo'lsalarda, xalqdan ajralmaganlar, Haq yodi bilan yashab, qalban pok bo'lish, odamlar manfaati uchun xizmat qilishni o'z hayotlarining mazmuni deb bilganlar.

Mavlono Orif Deggaroniy odamlarni insoniylikka, xalqparvarlikka, ezgu xulq – atvorga ega bo'lishga, savob ishlarga, toat-ibodatga pandu-nasihat hamda hikmatli gaplar ila da'vat etganlar. Mavlono Orifning ikki xalifalari: Mavlono Amir Ashraf Buxoriy va Amir Ixtiyoriddin Deggaroniy ul tabarruk zotning ishlarini davom ettirib, insonlarni Haqga irshod etganlar. Olim Abdulhay Abdurahmonovning "Saodatga eltuvchi bilim" kitobida tug'ilgan va vafot etgan yili aniqlanmagan mashhur so'fiylardan 47 nafar so'fiyning nomlari keltirilgan, ularning 26 – o'rnida Mavlono Orif Deggaroniyning ham nomlari qayd etilgan. Mavlono Orif Deggaroniyning tug'ilgan joylari Navoiy viloyati, Navoiy tumani, Hazora qishlog'ida qabrлari mavjud.

Xulosa va takliflar. Modomiki, Orif Deggaroniy Hazrati Xoja Bahouddin Naqshband, Muhammad Porso, Amir Hamza, Mavlono Amir Ashraf Buxoriy, Amir Ixtiyoriddin Deggaroniy kabi naqshbandiya tariqatining namoyandalariga ustoz bo'lishga muyassar bo'lgan ekanlar, biz u kishini Naqshbandiya tariqati shayxlarining piri murshidi desak arziyi. Hazrati Xoja Bahouddin ustozlari Amir Kulol xizmatlarida yetti oy bo'lgan bo'lsalar, Orif Deggaroniyning xizmatlarida yetti yil bo'lgan edilar. Orif Deggaroniy Bahouddin Naqshband bilan bo'lgan munosabatlari xususida hayotlarining so'nggi damlarida shunday degan edilar: "Siz bila bizning oramizda ma'lumdirkim, idтиҳоди кулий(хамжиятлик, бирлик, баробарлик) бор ерди ва бор турур..."

Mavlono Orif Deggaroniyning ibratli hayotlari, qoldirgan ma'naviy meroslari, axloqiy fikrlari yoshlarimiz uchun xayrli ishlarni amalga oshirishda o'ziga xos namuna bo'lib xizmat qiladi. Alloh Mavlono Orif Deggaroniy va ul zotning pir va muridlarini rahmat etgan bo'lsin.

Адабиётлар/Литература/References:

- Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз – I жилд, Тошкент, "Ўзбекистон", 2018. 29- 30 Б.
- Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Фикроти Аҳрорийя. /Табаррук рисолалар. Нашрга тайёрловчи,– Маҳмуд Ҳасаний, Баҳриддин Умрзок, Ҳамидуллоҳ Амин. Т.: Адолат, 2004, -Б 326.

3. Фахруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнилҳаёт (Оби ҳаёт томчилари) / Нашрга тайёрловчилар: Маҳмуд Ҳасаний, Баҳриддин Умрзоқ. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2004. –Б 390.
4. Наврӯзова Г.Н. Ҳожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. – Тошкент : Фан, 2021. -Б 244
5. Березиков Е. Святые люди Туркестана. –Т.: Камалак, 1992. –Б. 125.
6. Рахматова Х.Х. Ҳожа Аҳрор Валийнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари. – Тошкент: “Adib”, 2014. – Б. 110.
7. Raxmatova X.X. Xoja Ahror Valiy ma'naviy merosida murosa falsafasiga doir g'oyalar tahlili. -Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy. 2023. –Б 220.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/1 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).